“Davlat ekologik ekspertizasi markazi”
davlat muassasasi Bosh direktorining
2026-yil ____-maydagi _____-son
buyrug‘iga **16-ilova**

Tabiatni muhofaza qilish sohasida “sirli mijoz” instituti faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 31-maydagi PQ—171-son qaroriga muvofiq **“Tabiatni muhofaza qilish sohasida “Sirli mijoz””** instituti faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

1. Mazkur Nizom Davlat ekologik ekspertizasi markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) va uning hududiy filiallarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, fuqarolar bilan muloqot samaradorligini ta’minlash, shuningdek korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida “sirli mijoz” (maxfiy tekshiruv) institutini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Ekalogiya faoliyatini boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda o‘tkaziladigan nazorat hamda tekshirish tadbirlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1.2. Sirli mijoz instituti Markazda ichki nazorat va komplaens mexanizmlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

II. Asosiy tushunchalar

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

“sirli mijoz” – Davlat ekologik ekspertizasi markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) va uning hududiy filiallarida xizmatlar sifatini baholash maqsadida maxsus jalb etilgan, o‘z shaxsini oshkor etmagan holda tekshiruv o‘tkazuvchi shaxs;

sirli mijoz usulidagi nazorat tadbirlari (bundan buyon matnda nazorat tadbiri deb yuritiladi) – ekologiya tashkilotlari tomonidan iste’molchilar bilan o‘zaro

munosabatlarni amalga oshirish chog‘ida ularning faoliyatiga qo‘yiladigan talablarga rioya etilishini tekshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar.

maxfiy tekshiruv – xodimlarni oldindan ogohlantirmasdan amalga oshiriladigan kuzatuv va baholash jarayoni;

baholash mezonlari – xizmat ko‘rsatish sifati, odob-axloq qoidalariga rioya etish, qonunchilik talablariga amal qilish va boshqa ko‘rsatkichlar.

III. Nazorat tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi

3. Nazorat tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda topshiriqlari;

3.1. Nazorat tadbiri bevosita joyiga chiqqan holda yoki masofadan turib amalga oshiriladi.

3.2. Nazorat tadbiri qonuniylik, tadbir o‘tkazilayotganligining sir saqlanishi, beg‘arazlik va xolislik, kredit tashkilotining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashmaslik, korrupsiyaga va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplariga asoslangan holda sirli mijoz tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ekologik ekspertizasi markazining yillik (choraklik) ish rejalari;

olingan ma’lumotlar tahlili;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

ommaviy axborot vositalarida berilgan yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan (kelib tushgan) qonunbuzilish holatlari haqida axborot beruvchi xabarlar va ma’lumotlar;

boshqa tashkilotlardan olingan ma’lumotlar.

3.3. Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini tekshirish;

atrof-muhit monitoringi;

Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorati atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olish, atrof-muhit hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning holatini tahlil etish, baholash va prognoz qilish yo‘li bilan amalga oshirish.

3.4. Nazorat tadbiri o‘tkazish to‘g‘risida buyruq qabul qilinganidan so‘ng, navbatdagi ish kunidan kechiktirmasdan bu haqda nazorat tadbiri o‘tkaziladigan

mansabdor shaxsni yozma yoki elektron ravishda xabardor qilishi lozim, bundan reyd va “sirli mijoz” ko‘rinishidagi nazorat tadbirlarini o‘tkazish hollari mustasno.

3.5. Nazorat tadbirini o‘tkazishda:

Ekologiya to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan ma’lumotlarni tahlil qilishga;

nazorat tadbiri o‘tkazish va tahlil davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida bitim, ariza va boshqa hujjatlar ishtirokchilari bilan suhbat o‘tkazishga, qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan ulardan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish va olishga haqlidir.

3.6. Ishchi guruh reyd o‘tkazilayotgan vaqtda yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda:

Markaz faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish, lozim bo‘lganda ulardan nusxalar olish;

reyd o‘tkazilayotgan vaqtda kuzatuv (video) moslamalari va video tasvirga tushiruvchi boshqa qurilmalardan foydalanish;

Binoda o‘rnatilgan kuzatuv (video) moslamalaridagi yozuvlarning arxivini kunning ma’lum bir qismi yoki aniq bir soat bo‘yicha ko‘zdan kechirish va nusxa olish huquqlariga ega.

3.7. Ishchi guruh a’zolari nazorat tadbiri o‘tkazilayotgan barcha hujjatlarni olishga haqli.

3.8. Ishchi guruh qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

IV. Monitoring o‘tkazish va uning natijalaridan foydalanish

4. Davlat ekologik ekspertizasi markazi va uning hududiy filiallari xodimlari tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari va davlat ekologik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish uchun haqiqiy “mijoz” ko‘rinishida monitoringni amalga oshiruvchi xodimlar va kelishuv asosida boshqa shaxslardan foydalaniladi.

4.1. “Sirli mijoz” davlat xizmatlari ko‘rsatilishini so‘rab Davlat ekologik ekspertizasi markaziga bevosita murojaat qiladi. Murojaat qilishdan oldin birlamchi ma’lumotlar o‘rganib chiqiladi.

4.2. Monitoring davomida:

jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi;

xizmat ko‘rsatish vaqtida muomala madaniyatiga rioya etilishi;

odob-axloq qoidalariga amal qilinishi ahvoli;

stressli vaziyatlarda xodimlarning fuqarolar bilan qanday munosabatda bo‘lishi;

xodimlarning soha bo‘yicha bilim darajasi;

xodimning korrupsion holatlarga moyilligi;

xodimlar tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari va davlat ekologik nazoratini amalga oshirish jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarga to‘liq rioya etilayotganligi va ortiqcha hujjatlar talab qilinishi holatlari o‘rganiladi.

4.3. Monitoring jarayoni yashirin audio yoki video moslamalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilishi mumkin hamda ushbu moslamalarda yozib olingan ma’lumotlar mazkur bandda ko‘rsatilgan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida foydalaniladi.

4.4. “Sirli mijoz” tomonidan monitoring nafaqat bevosita ob’ektlarga tashrif buyurishlar, balki monitoring amalga oshirilayotgan davlat xizmatlari va ekologik nazoratini amalga oshirishiga qarab boshqa vositalar (telefon qo‘ng‘iroqlari, elektron pochta orqali murojaat qilish va boshqalar) orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

4.5. “Sirli mijoz” monitoring jarayonida . Davlat ekologik ekspertizasi markazi va uning hududiy filiallari xodimlarini huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirishi va undashi, shu jumladan nizoli, bahsli holatlarni va kamchiliklarni sun’iy ravishda yaratish taqiqlanadi.

4.6. Monitoring ishlari . Davlat ekologik ekspertizasi markazi hamda “sirli mijoz” monitoringini o‘tkazishga kelishuv asosida jalb etilgan boshqa tashkilotlar tomonidan birgalikda tashkil etiladi.

4.7. Monitoring o‘tkazishga shartnoma asosida tadbirkorlik sub’ektlari, shuningdek boshqa shaxslar ham jalb qilinishi mumkin.

Tadbirkorlik sub’ektlari autsorsing shartnomasiga binoan monitoring o‘tkazishga jalb qilingan hollarda, uning natijasida olingan ma’lumotlarni Ekologiya qo‘mitasi organlari ruxsatisiz oshkor qilish taqiqlanadi. Tadbirkorlik sub’ektining monitoring jarayonidagi vakolati chegarasi hamda monitoring o‘tkazish shartlari va muddatlari shartnoma asosida belgilanadi.

4.8. Monitoring o‘tkazilgandan so‘ng, uning natijalari bo‘yicha har chorakda Markaz Bosh direktoriga asoslantirilgan axborot beriladi.

4.9. “Sirli mijoz” monitoringini o‘tkazishda zarur bo‘lgan hollarda vakolatli organlardan davlat xizmatlariga oid axborot va ma’lumotlar so‘rab olinishi mumkin.

4.10. Zarur hollarda monitoring jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek natijalarni tahlil qilishda kelishuv asosida vakolatli organlar va Ekologiya qo‘mitasi mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

4.11. Monitoring natijalari shaxsiy bo‘lmagan shaklda rasmiylashtiriladi hamda qonun hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish uchun tegishli davlat xizmatlari va ekologik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha Markazga majburiy tartibda ko‘rib chiqish uchun taqdimnomalar yuboradi.

Monitoring natijalariga ko‘ra xodimlar tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinmaganligi hamda qonunbuzilish yoki salbiy holatlarga olib

kelganligi tasdiqlangan taqdirda, mazkur xodimlar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

4.12 Davlat ekologik ekspertizasi markazi va uning hududiy filiallari xodimlariga “sirli mijoz” natijalari bo‘yicha kelib tushgan taqdimnomalar bo‘yicha quyidagi tadbirlardan birini yoki bir nechtasini amalga oshirishlari tavsiya etiladi:

O‘rganish natijalariga ko‘ra, Davlat ekologik ekspertizasi markazi va uning hududiy filiallari ish faoliyatini yanada yaxshilash va aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish;

xodimlarning halolligi va sodiqligini baholash;

salbiy harakatlarni amalga oshirgan xodimlarni kelgusida bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash;

xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan, shu jumladan nojo‘ya, nopok va korrupsion holatlarga moyilligi bo‘lgan xodimlarga nisbatan tegishli huquqiy baho berish masalasini ko‘rib chiqish.

4.13. “Sirli mijoz” instituti faoliyatini yuritish bilan bog‘liq xarajatlar Markazning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

4.14. “Sirli mijoz” tadbiri Markaz Bosh direktorining buyrug‘iga asosan muntazam ravishda o‘tkaziladi.

4.15. “Sirli mijoz” tadbiri quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

Ekologiya sohasida harakatlarning sifati va tezkorligi ekologiya sohasida shubha uyg‘otganda, ushbu sohada huquqbuzarliklar sodir etilayotganligi haqidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish zarurati tug‘ilganda;

jismoniy va yuridik shaxslarning xizmat ko‘rsatish jarayonidan noroziligi haqidagi murojaatlari kelib tushganda.

4.16. “Sirli mijoz” tadbiriga mas’ul xodimlari, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z ixtiyoriga ko‘ra jamoatchilik asosida ishtirok etishga rozilik bergan vakillari jalb qilinishi mumkin.

“Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazish davomida:

bino atrofi va xonalarning tozaligi;

xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi;

xizmat ko‘rsatish vaqtida muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etilishi;

4.17. “Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazishda yashirin diktofon yoki video kuzatuv moslamalaridan foydalanilishi mumkin.

4.18. “Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazish jarayonida ekologiya sohasida huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish va undash, shu jumladan nizoli, bahsli holatlarni va kamchiliklarni sun’iy ravishda keltirib chiqarish taqiqlanadi.

4.19. “Sirli mijoz” tadbiri yakunlari bo‘yicha ma’lumotnoma tuziladi.

4.20. Xizmat tekshiruvi Markaz Bosh direktorining buyrug‘i asosida besh ish kuni davomida o‘tkaziladi. Markaz Bosh direktori buyrug‘i asosida mazkur muddat qo‘shimcha besh ish kuniga qadar uzaytirilishi mumkin.

4.21. Xizmat tekshiruvi davomida mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakatning holati, sabablari va sharoitlari, nojo‘ya xatti-harakat sodir etilishiga aloqador bo‘lgan aniq bir xodim va shaxslarning aybdorlik darajasi aniqlanadi.

4.22. O‘ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan mansabdor shaxs buyruq bilan tanishtirilishi shart.

4.23. Mansabdor shaxsga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotganda, xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan holat yuzasidan undan yozma tushuntirish talab qilinadi.

Mansabdor shaxs yozma tushuntirish berishdan bosh tortgan hollarda ishchi guruh tomonidan tegishli dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnoma ishchi guruh a’zolari yoki tushuntirish berishdan bosh tortganligini tasdiqlaydigan boshqa xodimlar tomonidan imzolanadi. Mansabdor shaxsning tushuntirish berishdan bosh tortishi xizmat tekshiruvini o‘tkazishga to‘sqinlik qilmaydi.

4.24. Ishchi guruh a’zolari notarial idoraning boshqa xodimlaridan ham tushuntirishlar talab qilishga haqli.

4.25 Xizmat tekshiruvi o‘tkazish jarayonida ishchi guruh quyidagilarni aniqlaydi:

mansabdor shaxs tomonidan nojo‘ya xatti-harakat sodir etilgan yoki sodir etilmaganligi faktini tasdiqlovchi holatlarni;

mansabdor shaxs tomonidan aynan qaysi normativ-huquqiy hujjat talablari buzilganligini.

4.26 O‘ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan mansabdor shaxs:

sodir etilgan xatti-harakat yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish orqali yozma tushuntirishlar berish, o‘z tushuntirishining mohiyati bo‘yicha dalillarni taqdim qilish;

xizmat tekshiruvi yakuni bo‘yicha uni o‘tkazish hujjatlari, shuningdek xizmat tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma yoki xulosa bilan tanishishga haqli.

4.27. Ishchi guruh tomonidan xizmat tekshiruvi yakuni bo‘yicha adliya organi rahbari yoki uning o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan ma’lumotnoma yoxud xulosa tuziladi. Ushbu ma’lumotnoma yoki xulosa bir nusxada rasmiylashtiriladi.

4.28. Xizmat tekshiruvi ma’lumotnomasi yoki xulosasi notariusga tanishtirilishi shart.

Mansabdor shaxs xizmat tekshiruvi ma’lumotnomasi yoki xulosasi bilan tanishishdan bosh tortsa, bu haqida dalolatnoma tuziladi.

4.29 . Xizmat tekshiruvi natijasida nojo‘ya xatti-harakat fakti aniqlangan taqdirda, adliya organi tomonidan xizmat tekshiruvi ma’lumotnomasi yoki xulosasi va to‘plangan hujjatlar tegishliligiga ko‘ra malaka komissiyasiga yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

V. Yakuniy qoida

5. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.